



LEGAL PROTECTION OF THE FRANCHISEE UNDER A FRANCHISING AGREEMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN

Abbasova Moxinabonu Fazliddin qizi

Samarkand State University, Faculty of Law

First-Year Student, Bachelor's Degree Program in Jurisprudence

Email: abbasovamoxinabonu@gmail.com

Phone: +998772207027

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22022065>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2026

Accepted: 19th August 2026

Online: 20th August 2026

KEYWORDS

Franchising, franchisee,
comprehensive
entrepreneurial license, legal
protection, contractual
balance, intellectual
property, international
experience.

ABSTRACT

This article examines the legal protection of the franchisee as the weaker party in franchising contractual relationships, which are currently developing rapidly in the Uzbek market. The author analyzes gaps in the national civil legislation by comparing them with the legislation and international experience of the United States and European countries. The article also puts forward proposals aimed at protecting local entrepreneurs from unfair competition and unreasonable risks.

ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА ФРАНШИЗОПОЛУЧАТЕЛЯ В ДОГОВОРЕ ФРАНШИЗИНГА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО УЗБЕКИСТАНА

Аббасова Мохинабону Фазлиддин кизи

Самаркандский государственный университет, юридический факультет

Студентка 1 курса направления «Юриспруденция»

Электронная почта: abbasovamoxinabonu@gmail.com

Телефон: +998772207027

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22022065>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2026

Accepted: 19th August 2026

Online: 20th August 2026

KEYWORDS

Франчайзинг,
франшизополучатель,
комплексная
предпринимательская
лицензия, правовая
защита, договорный
баланс,
интеллектуальная
собственность,
международный опыт.

ABSTRACT

В данной статье рассматриваются вопросы правовой защиты франшизополучателя, являющегося слабой стороной договорных отношений во франчайзинге, который в настоящее время стремительно развивается на рынке Узбекистана. Автор анализирует пробелы в национальном гражданском законодательстве в сравнении с законодательством и международным опытом США и европейских стран, а также выдвигает предложения по защите местных предпринимателей от недобросовестной конкуренции и необоснованных рисков.



**FRANSHIZING SHARTNOMASIDA FRANSHIZA OLUVCHINING HUQUQIY
HIMOYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI**

Abbasova Moxinabonu Fazliddin qizi

Samarqand Davlat Universiteti Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Elektron pochta: abbasovamoxinabonu@gmail.com

Telefon: +998772207027

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22022065>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2026

Accepted: 19th August 2026

Online: 20th August 2026

KEYWORDS

*Franshizing, franshiza
oluvchi, kompleks
tadbirkorlik litsenziyasi,
huquqiy himoya,
shartnomaviy balans,
intellectual mulk, xalqaro
tajriba.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekiston bozorida shiddat bilan rivojlanayotgan franshiza oluvchining huquqiy himoyasi masalalari tahlil qilinadi. Muallif milliy Fuqarolik kodeksidagi bo'shliqlarni xalqaro tajriba (AQSH va Yevropa) qonunchiligi bilan qiyoslagan holda o'rganadi va mahalliy tadbirkorlarni insofsiz raqobat va asossiz tavakkallardan himoya qilish bo'yicha takliflar ilgari suradi.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti shiddatli transformatsiyalashmoqda va global bozorga integratsiyalashib bormoqda. Buning yaqqol misoli sifatida mamlakatimiz xizmat ko'rsatish va umumiy ovqatlanish bozorida (KFC, FeedUp, Evos, Wendy's kabi) yirik brendlar ostida ish yurituvchi franshizing tarmoqlarining keskin ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Franshizing- tayyor biznes modelini sotib olish va undan foydalanish huquqini beruvchi samarali iqtisodiy vositadir. Biroq, ushbu munosabatlarning huquqiy asosi hisoblangan shartnomaviy tartibga solish tizimida jiddiy muammolar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida franshizing munosabatlari "Kompleks tadbirkorlik

litsenziyasi" (50-bob) sifatida tartibga solingan. Shunga qaramay, amaldagi qonunchilik normalari asosan franshiza beruvchining (yirik brend egasining) intellectual mulkini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, shartnomaning nisbatan zaif va iqtisodiy jihatdan qaram tarafi bo'lgan franshiza oluvchining (mahalliy kichik va o'rta tadbirkorlarning) manfaatlarini yetarli darajada himoya qila olmaydi. Amaliyotda yirik kompaniyalar shartnoma shartlarini bir tomonlama, og'ir jarimalar va qat'iy cheklovlar bilan tuzadilar, bu esa mahalliy tadbirkorlarning iqtisodiy inqiroziga olib kelishi mumkin.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, milliy qonunchiligimizdagi bunday disbalansni o'rganish va bartaraf etish choralari ko'rish zarur. AQSH (Federal savdo komissiyasi qoidalari) va Yevropa ittifoqi davlatlari tajribasi shuni



ko'rsatadiki, franshiza oluvchini asossiz kamsitishlardan va insofsiz raqobatdan himoya qiluvchi maxsus huquqiy mexanizmlar mavjud. Mazkur tadqiqot ishida xorijiy tajribani tahlil qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini zamonaviy bozor talablariga moslashtirish va franshiza oluvchining huquqiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tiladi.

Yuqoridagi tadqiqot metodologiyasi xalqaro tajriba (AQSH va Yevropa ittifoqi) hamda O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi o'rtasidagi o'zaro nomuvofiqliklarni (legal gaps) aniqlash va franshiza qiluvchining (franchisor) huquqiy himoya mexanizmlarini optimallashtirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi umummilliy va maxsus- huquqiy metodlar majmuasidan tizimli ravishda foydalanildi:

Qiyosiy – huquqiy tahlil (comperative Legal Analysis): O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (FK 50- bobi (“ Tijorat konsessiyasi”) normalai dispozitivlik va imperativlik darajasiga ko'ra rivojlangan xorijiy yurisdiksiyalar qonunchiligi bilan qiyoslandi. Xususan, AQSH Federal savdo komissiyasining (FTC) 16 C.F.R. Part 436 (Franchise Disclosure Rule) qoidasi, Germaniya Fuqarolik kodeksining insofsiz shartnomaviy shartlar to'g'risidagi doctrial qoidasi, Germaniya Fuqarolik kodeksining (BGB) insofsiz shartnomaviy shartnomaviy shartlar to'g'risidagi doctrial qoidalari (305-310 BGB) va UNIDROIT (Xalqaro huquqni inifikatsiya qilish institui) tomonidan ishlab chiqilgan “ Franshizingni oshkor qilish to'g'risidagi namunaviy qonun” (

Model Franchise Disclosure Law) asos qilib olindi.

Tizimli- huquqiy va tarkibiy tahlil:

Franshizing munosabatlari static hujjat tizimi sifatida emas, balki uch fazali (shartnomadan oldingi – pre - contractual, shartnomaning amal qilish- contractual execution va shartnomani bekor qilish – post- contractual) dinamik jarayon sifatida tahlil etildi. Har bir fazada franshiza oluvchining protsessual va moddiy huquqlari darajasi Blair va Lafontaine (2005) tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy- huquqiy asimmetriya modellari asosida tekshirildi.

Huquqiy doktrina va sud amaliyoti tahlili:

Franshiza munosabatlarida “ shartnoma erkinligi “ (freedom of contract) va “zaif tomonni himoya qilish” (protection of the weaker party) prinsplari o'rtasidagi kolliziya tahlil qilindi (Rahmonqulov 2020). Mahalliy iqtisodiy sudlarning tijorat konsessiyasi shartnomalarini haqiqiy emas deb toppish va ularni bekor qilishga oid amaliyoti tahliliy umumlashtirildi (Asqarov 2023).

Shartnomadan oldingi munosabatlar bosqichida “pre- contractual Disclosure” institutining mavjud emasligi

Xalqaro xususiy huquqda caveat emptor (“xaridor ehtiyot bo'lsin”) prinspi faranshizing munosabatlarida cheklanadi. Sababi franshiza beruvchi intellectual va moliyaviy aktivlarning mutlaq egasi bo'lib axborot ustunligiga (informational asymmetry) ega bo'adi (Mendelsohn 2004).

Xalqaro standartlar: AQSH huquqiy tizimidagi Franchise Disclosure Document (FDD) talablariga muvofiq



(16C.F.R. Part 436), franshiza beruvchi shartnoma imzolanishidan kamida 14 kun oldin oluvchiga 23 ta punkt bo'yicha (shu jumladan, brendning o'tmishdagi bankrotlik tarixlari, amaldagi sud nizolari, litsenziya tizimidan chiqib ketgan boshqa oluvchilarning ulushi va aniq moliyaviy ko'rsatkichlar) hisobot berishi majburiydir (Gurnick 2018. Emerson 2012) ta'kidlaganidek, bunday ma'lumotlarni yashirish shartnomani voidable (haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo'lgan) holatga keltirib, franchayzerni fuqarolik javobgarligiga tortishga asos bo'ladi. UNIDROIT Model Franchise Disclosure Law (2002) hujjati ham xalqaro miqyosda aynan shu majburiyatni unifikatsiyalashtirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliq: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (FK) 50- bobida pre-contractual disclosure (shartnomadan oldingi ma'lumotlarni ochib berish) majburiyati haqida maxsus imperative norma mavjud emas. Rahmonqulov (2020) ta'kidlaganidek, fuqarolik huquqidagi umumiy "halol niyatlilik" (FK 9-moddasi) (good faith) prinsipi franshizingning o'ziga xos murakkab xususiyatlarini va axborot nomutanosibliqni to'liq qamrab olmaydi. Natijada mahalliy tadbirkorlar "shishirilgan" moliyaviy model qurboniga aylanmoqda va buni sud tartibida aldash (FK123- moddasi) sifatida isbotlash amaliyotda o'ta murakkab kechmoqda Asqarov (2023).

Ro'yxatdan o'tkazishning ikvizitsion xarakteri va "Haqiqiy emaslik" (Invalidity) xavfi

O'zbekiston qonunchiligining eng jiddiy ziddiyatlaridan biri tijorat

konsessiyasi shartnomasining shakli va uni ro'yxatdan o'tkazish oqibatlari bilan bog'liq.

FK 866-moddasi 2-qismiga ko'ra, tijorat onsessiyasi shartnomasi uni ro'yxatdan o'tkazuvchi organda (davlat xizmatlari markazlari yoki Adliya vazirligida) ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Ushbu talabga rioya qilmaslik shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi. Lekin, Ko'plab Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (masalan, Germaniya va Fransiyada) shartnomani davlat ro'yxatidan o'tkazish uning tomonlar o'rtasidagi haqiqiy bo'lish sharti emas, balki shartnomaning uchinchi shaxslarga nisbatan huquqiy oqibat tug'dirishi (opposability to third parties) sharti hisoblanadi.

O'zbekiston sud amaliyotida franshiza oluvchi yirik miqdorda investitsiya kiritib, biznesni yo'lga qo'rganidan so'ng tomonlar o'rtasida nizo chiqsa, franshiza beruvchi shartnomaning ro'yxatdan o'tmasligini vaj qilib, uni o'z-o'zidan haqiqiy emas (void ab initio) deb topishni so'ramoqda, Sudlar buni qanoatlantirganda restitution (dastlabki holatga qaytarish) qoidasi qo'llanadi, biroq franshiza oluvchining nomoddiy aktivlariga, binoni brend standartlariga moslashga qilgan xarajatlari va yo'qotilgan foydasi (lucrum cessans) qoplanmay qolib ketmoqda. Bu esa insofsiz franchayzerlar uchun huquqiy suiiste'mollik (abuse of right) eshigini ochadi.

Subfranshizing tizimida aktsessorlik zanjiri va asossiz tugatilish risklari

Franshiza oluvchining iqtisodiy barqarorligi ko'pincha uning uchinchi



shaxslar bilan munosabatlariga ham bog'liq bo'ladi (Blair & Lafontaine, 2005)

O'zbekiston Respublikasi FK 871-moddasiga binoan, asosiy tijorat konsessiyasi shartnomasining bekor qilinishi u bo'yicha tuzilgan subkonsessiya (subfranshiza) shartnomalarining ahamiyatli avtomatik ravishda tugatilishiga sabab bo'ladi. Rivojlangan huquqda esa attornment yoki to'g'ridan-to'g'ri vorislik huquqi prinsipi qo'llanadi. (Barkoff & Selden, 2014). Ya'ni agar asosiy franshiza oluvchi (master franchisee) shartnomani buzsa, subfranshiza oluvchi o'z majburiyatlarini halol bajargan bo'lsa, uning shartnomasi bekor bo'lmaydi, balki huquq va majburiyatlar to'g'ridan-to'g'ri bosh franshiza beruvchiga (franchisor) o'tadi. O'zbekiston qonunchiligidagi amaldagi mexanizm esa subfranshiza oluvchini mutlaqo himoyasiz qoldirib, uning mustaqil biznes subyekti sifatidagi huqlarini inkor etadi (Asqarov, 2023).

Shartnomani bir tomonlama bekor qilishdagi tengsizlik (Termination for Cause & Convenience) FK873-moddasida mudati ko'rsatilmagan shartnomani 6oy oldin ogohlantirish sharti bilan bir tomonlama bekor qilish huquqi berilgan. Muammo shundaki, Franshiza oluvchi dastlabki yillarda brendni bozora kiritish uchun kata capital kiritadi va dastlabki 2- 3 yilda zarar yoki nol nsobga ishlaydi. Franchayzer esa bozor tayyor bo'lgandan keyin, shartnomaning muddatsizligidan foydalanib, 6 oy oldin ogohlantirib shartnomani bekor qilishi va tayyor bozorni o'zing sho'ba korxonasiga olib berishi mumkin. Xalqaro amaliyotda franshiza beruvchining shartnomani bekor qilishi uchun faqat "asosli sabab"

(good cause), ya'ni oluvchi tomonidan majburiyatlarning qo'pol ravishda buzilishi shart qilib qo'yiladi. O'zbekiston qonunchiligidagi umumiy dispozitivlik esa investorlar uchun tizimli xavf (risk) xisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik qonunchiligi FK(50-bobi) transchegaraviy va milliy franshizing munosabatlariida "shartnoma erkinligi" (freedom of contract) prinsipini mutloqlashtirish orqali munosabatlarning tarkibiy jihatdan zaif tomoni hisoblangan franshiza oluvchining huquqiy va iqtisodiy manfaatlarini tizimli himoya qila olmayapti.

Blair va Lafontaine (2005) o'zlarining fundamental tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, franshizing tabiatiga ko'ra asimmetrik munosabat bo'lib, unda brend egasi (franchisor) strategik, axborot va moliyaviy ustunlikka ega bo'ladi. O'zbekiston qonunchiligida ushbu iqtisodiy reallik yetarlicha hisobga olinmagan.

Rahmonqulov (2020) fuqarolik huquqida "zaif tomonni himoya qilish" doktrinasini tahlil qilar ekan, qonun chiqaruvchi subyektlarning rasmiy tengligi prinsipidan chekinib, iqtisodiy jihatdan zaifroq tomonga qo'shimcha huquqiy kafolatlar berish zarurligini asoslaydi. Biroq, FK 50-bobi normalari dispozitiv xarakterda bo'lib, amaliyotda kuchli tomon (franshiza beruvchi) o'zining adolatsiz shartlarini (unfair contract terms) shartnomaga majburlab kiritishiga huquqiy maydon yaratmoqda.

AQSH tajribasidagi 16C.F.R. Part 436 (Franchise Rule) qoidasi tizimli



axborot nomutanosibligini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Agar franshiza beruvchi shartnomadan oldin biznes risklarini Franchise Disclosure Document (FDD) orqali ochib bermasa, u AQSHda og'ir sanksiyalarga tortiladi. O'zbekistonda esa bunday majburiyatning yo'qligi mahalliy investorlarni "tayyor biznes" niqobi ostidagi kasodga uchragan loyihalarni sotib olish xavfi ostida qoldiradi. Shuningdek FK 866-moddasidagi shartnomani davlat ro'yxatidan o'tkazmaslik oqibatida uning o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topilishi haqidagi norma mutanosiblik prinsipiga zid keladi. Asqarov (2023) ko'rsatib o'tganidek, ushbu inkvizitsion qoida insofsiz brend egalari uchun o'z majburiyatlaridan qochish va franshiza oluvchi yaratgan tayyor infratuzilmani tortib olish uchun huquqiy qurolga aylangan.

Vaholangki yevropa tajribasida (Zwisler 2015) va UNIDROIT Model qonunida ro'yxatdan o'tkazish faqat uchinchi shaxslarga nisbatan huquqiy oqibat tug'dirish uchun xizmat qiladi, shartnomaning haqiqiylikiga ta'sir qilmaydi.

FK 871-moddasidagi subfranshizing zanjirining asosiy shartnomaga bog'liqligi haqida qoida ham Barkoff va Selden (2014) tomonidan ilgari surilgan korporativ barqarorlik prinsplariga ziddir. Halol subfranshiza oluvchini asosiy franchayzerning bankrotligi yoki xatolaridan himoya qiluvchi attornment (to'g'ridan-to'g'ri huquqiy vorislik) institutini O'zbekiston qonunchiligiga joriy etish zarurati yaqqol ko'rinmoqda.

Qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar:

FK 866-1-modasi sifatida "Shartnomadan oldingi ma'lumotlarni majburiy oshkor qilish " (Pre-contractual Disclosure) normasini kiritish. Unga ko'ra, franshiza beruvchi shartnoma imzolashidan kamida 14 kalendar kun oldin o'zining moliyaviy holati, sud nizolari va intellektual mulk obyektlarining huquqiy holati haqidagi to'liq hujjatlar paketini taqdim etishi shartligi belgilansa va FK 871-moddasiga qo'shimcha kiritib, agar subfranshiza oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq barcha shartlar asosida bajargan bo'lsa, aksincha uning huquq va majburiyatlari bosh franshiza beruvchiga to'g'ridan to'g'ri o'tishi (huquqiy vorislik) mustahkamlanishi lozim.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarining xalqaro brendlar bilan teng huquqli integratsiyalashuvini ta'minlash uchun tijorat konsessiyasi institutini tubdan isloh qilish zarur. Franshiza oluvchi faqatgina shartnoma majburiyatlarini bajaruvchi subyekt emas, balki milliy iqtisodiyotga investitsiya kiritayotgan zaif tomon sifatida qonun himoyasida bo'lishi shart. Fuqarolik kodeksining 50-bobini xalaro UNIDROIT prinsplari hamda AQSH va Yevropa ittifoqining ilg'or tajribasi asosida modernizatsiya qilish (axborotni oshkor qilish majburiyatini yuklash, ro'yxatdan o'tkazish oqibatlarini yumshatish va subfranshizalarni asossiz tugatishdan asrash) milliy tadbirkorlarning huquqiy xavfsizligini ta'minlaydi va O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.



References:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). (50-bob. Tijorat konsessiyasi).
2. UNIDROIT Model Franchise Disclosure Law (2002). International Institute for the Unification of Private Law. Rome.
3. US Federal Trade Commission (FTC) Franchise Rule, 16 C.F.R. Part 436 (Disclosure Requirements and Prohibitions Concerning Franchising).
4. Abduraxmonov, A. A. (2021). O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik huquqi: darslik. Toshkent.
5. Blair, R. D. & Lafontaine, F. (2005) The Economics of Franchising. Cambridge University Press.
6. Barkoff, R. M., & Selden, A. C. (2014). Fundamentals of Franchising (4th ad.), American Bar Association (ABA).
7. Mendelsohn, M. (2004). The Guide to Franchising. Gengage learning EMEA.
8. Asqarov, J. (2023). O'zbekistonda tijorat konsessiyasi (franshizing shartnomasini huquqiy tartibga solishning dolzarb muammolari. O'zbekiston qonunchiligi tahlili, 4(2), 45-52.
9. Emerson, R.W.(2012). Franchise Disclosure: International Standards. Arizona Journal of International and Comparative Law, 29(1), 101-143.
10. Gurnick, D. (2018). The Evolution of Franchise Disclosure Documents. Franchise Law Journal, 37(3), 325-349.
11. Rahmonqulov, H. R. (2020). Fuqarolik huquqida asimmetrik shartnomalar va zaif tomon tushunchasi. Yuridik fanlar axborotnomasi. 1(3) 12-19.
12. Zwisler, E.H. (2015). Protection of the Weaker Party in International Franchise Agreements: A European Perspective. European Review of Private Law, 23(5), 789-812.